# PUDRAT SHARTNOMASI №7

2022 yil "29" 11 Kitob tumani

**Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi** (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi **A.Xamidov** bir tomondan va **OOO Lochin-Timsoli** (keyingi o'rinlarda Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi **B.Irgashev** ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: **Kitob tuman Panji MFY Panji shaharchasi ichki yo'llarini 2.849 km qismini joriy ta'mirlash ishlari,** Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

## 2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi **1 154 000 000 (Bir milliard bir yuz ellik to'rt million)** so'mni tashkil etadi. **NDS so'mmasi 150 521 739.13 (Bir yuz ellik million besh yuz yigirma bir ming yetti yuz o'ttiz to'qqiz so'm o'n uch tiyin).**

2.2. Shartnoma buyicha ishlarni bajarish muddati 30 noyabrdan 30 dekabr kunigacha.

## 3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 15% oldindan **173 100 000 (Bir yuz yetmish uch million bir yuz ming)** avans to'lovi, 85% **980 900 000 (To'qqiz yuz sakson million to'qqiz yuz ming)** qolgan to'lov.

3.2. To'lov shakli: Pul ko'chirish yo'li orqali

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 30 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

## 4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi.

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – Shartnoma ikkala taraf tomonidan imzolanib bunga qo'shimcha ravishda hududiy g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan kuchga kiradi.

Tugashi – 2022 yil 31 dekabr

## 5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

**5.1. Pudratchining majburiyatlari:**

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

agar ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor

qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong‘in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo‘riqlanishi bo‘yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta’minlash;

obyektlarining sug‘urta qilinishini ta’minlash;

tugallangan obyektlarni qabul qilish.

**5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:**

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to‘lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektni qabul qilib olish.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Pudratchi shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish (ishlar bajarish) muddatlarini buzgan taqdirda, Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun bajarilmagan ishlar bahosining 0.5 foizi miqdorida penya to‘laydi. Biroq penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.2. Bajarilmagan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov so'mmasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

6.3.Mazkur shartnoma bo‘yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.4. Agar Pudratchi shartnoma bo‘yicha ishlar tugallangandan so‘ng o‘ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo‘shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to‘lashni to‘xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to‘lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

## 7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo‘lmagan holatlar (yengib bo‘lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo‘lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O‘z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo‘lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga ta’siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo‘lmas kuch holatlari uzluksiz 3 (uch) oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo‘lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo‘li bilan bekor qilinishi mumkin.

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha yoki u bilan bog‘liq holda taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o‘rtasida muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo‘li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o‘zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo‘lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar belgilangan tartibda tegishliligi bo'yicha Iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Tomonlar:

-Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu

Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

-Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa

Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantirish Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

9.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 9.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa - amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

| **BUYURTMACHI:** | **PUDRATCHI:** |
|---|---|
| Nomi: Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi | Nomi: OOO Lochin-Timsoli |
| Manzili: Kitob tumani G.Jurabek ko'chasi 26-uy | Manzili: Shahrisabz sh Kulolchilik 2/8 |
| x/r: 4017228601023270452051100003 | x/r: 2020 8000 3047 2603 6001 |
| INN: 205 308 760 OKONX: 90211 | INN: 300 908 442 |
| IFUT: 39000 | MFO: 01048 OKED: 42110 |
| O'z Res Moliya Vazirligi G'aznachiligi | Bank: Ipak Yo'li AITB Shahrisabz filiali |
| x/r: 23402000300100001010 | |
| INN: 201 122 919 | |
| Toshkent sh. Markaziy bank BBXKKM MFO: 00014 | |
| **Rahbar:** **A.Xamidov** | **Rahbar:** **B.Irgashev** |

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

KO5582751068

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi va Lochin-Timsoli MCHJ o'rtasida umumiy qiymati 1 154 000 000 (Bir milliard bir yuz ellik to'rt million) so‘mlik Kitob tuman Panji MFY Panji shaharchasi ichki yo'llarini 2.849 km qismini joriy ta'mirlash ishlari to'g'risidagi shartnoma loyihasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: KITOB TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI tomonidan 29.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Kitob tuman yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**N.N.ASHUROV**

29.11.2022

## Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 193110 на приобретение Kitob tuman Panji MFY Panji shaharchasi ichki yo'llarini ishlarini 2.849 km qismini joriy tamirlash ishlari

Способ проведения электронный

Дата 25.11.2022

Время рассмотрения 25.11.2022 15:15

Закупочная комиссия Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | XAMIDOV ABDISAMI SAMATOVICH | Рахбар | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Секретарь комиссии** | HAMROQULOV BEKZOD KARIM O'G'LI | G'aznachi | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | AMIROV BOBAMURAT YUSUBOVICH | Бош хисобчи | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | XAKIMOV NASRIDDIN ZUVAYDULLAYEVICH | Булим бошлиғи | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | SAMADOV ABDUMANNON SATTOROVICH | bosh muhandis | Kitob Obodonlashtirish |
| **Член комиссии** | MADIYEV KAMOLIDDIN ISMAILOVICH | texnik nazoratchi | Obodonlashtirish |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 25.11.2022 года № лота 193110.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог** |
|---|---|
| Подробное описание | Kitob tuman Panji MFY Panji shaharchasi ichki yo'llarini ishlarini 2.849 km qismini joriy tamirlash ishlari |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 1164 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 1164 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ishtirokchi korxona ustavi. xodimlar to'g'risida to'liq ma'lumot, guvohnoma, tashkilot sertifikati, bajarish muddati to'g'risida kafolat xati pdf

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishtirokchi korxona ustavi. xodimlar to'g'risida to'liq ma'lumot, guvohnoma, tashkilot sertifikati, bajarish muddati to'g'risida kafolat xati pdf

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO LOCHIN-TIMSOLI** | 10 | 1154000000 | 5 | Экспертная | | |
| **OOO KESH TRANS MEGA STROY** | 10 | 1160000000 | 10 | Экспертная | | |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 10 | Ishtirokchi korxona ustavi. xodimlar to'g'risida to'liq ma'lumot, guvohnoma, tashkilot sertifikati, bajarish muddati to'g'risida kafolat xati pdf | 5 | Экспертная | | |

Критерий №2 Tanlovda qo'yilgan obyektni o'rganganligi to'g'risida ma'lumotnoma tasdiqlangan bo'lishi shart pdf

Тип: Текстовое значение

Описание: Tanlovda qo'yilgan obyektni o'rganganligi to'g'risida ma'lumotnoma tasdiqlangan bo'lishi shart pdf

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO LOCHIN-TIMSOLI** | 10 | 1154000000 | 10 | Экспертная | | |
| **OOO KESH TRANS MEGA STROY** | 10 | 1160000000 | 10 | Экспертная | | |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 10 | Tanlovda qo'yilgan obyektni o'rganganligi to'g'risida ma'lumotnoma tasdiqlangan bo'lishi shart pdf | 5 | Экспертная | | |

Критерий №3 Korxonaning to'liq yuridik manzili bank va soliq rekviziti telefon raqam guvohnomasi va soliqdan qarzdorligi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma pdf

Тип: Текстовое значение

Описание: Korxonaning to'liq yuridik manzili bank va soliq rekviziti telefon raqam guvohnomasi va soliqdan qarzdorligi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma pdf

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO LOCHIN-TIMSOLI** | 20 | 1154000000 | 20 | Экспертная | | |
| **OOO KESH TRANS MEGA STROY** | 20 | 1160000000 | 15 | Экспертная | | |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 20 | Korxonaning to'liq yuridik manzili bank va soliq rekviziti telefon raqam guvohnomasi va soliqdan qarzdorligi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma pdf | 20 | Экспертная | | |

Критерий №4 Ishtirokchi korxonaning tugatish yoki bankrotlik arafasida turmaganligi, mol-mulki musodaraga olinmaganligi , hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi insofsiz korxonalar safida mavjud bo'lmaganligi tugrisida ma'lumot pdf

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishtirokchi korxonaning tugatish yoki bankrotlik arafasida turmaganligi, mol-mulki musodaraga olinmaganligi , hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi insofsiz korxonalar safida mavjud bo'lmaganligi tugrisida ma'lumot pdf

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО LOCHIN-TIMSOLI** | 20 | 1154000000 | 20 | Экспертная | | |
| **ООО KESH TRANS MEGA STROY** | 20 | 1160000000 | 5 | Экспертная | | |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 20 | Ishtirokchi korxonaning tugatish yoki bankrotlik arafasida turmaganligi, mol-mulki musodaraga olinmaganligi , hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi insofsiz korxonalar safida mavjud bo'lmaganligi tugrisida ma'lumot | 5 | Экспертная | | |

Критерий №5 Ishtirokchi korxonaning ishni bajarish bo'yicha omborida mavjud mahsulotlari. pdf

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishtirokchi korxonaning ishni bajarish bo'yicha omborida mavjud mahsulotlari. pdf

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО LOCHIN-TIMSOLI** | 20 | 1154000000 | 20 | Экспертная | | |
| **ООО KESH TRANS MEGA STROY** | 20 | 1160000000 | 20 | Экспертная | | |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 20 | Ishtirokchi korxonaning ishni bajarish bo'yicha omborida mavjud mahsulotlari | 20 | Экспертная | | |

Критерий №6 Shu turdagi ishlarni bajarganligi to'g'risida ma'lumot (F-5 F-2) taqdim qilish oxiri 3 yillik balans, moliyaviy natija pdf

Тип: Текстовое значение

Описание: Shu turdagi ishlarni bajarganligi to'g'risida ma'lumot (F-5 F-2) taqdim qilish oxiri 3 yillik balans, moliyaviy natija pdf

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО LOCHIN-TIMSOLI** | 10 | 1154000000 | 10 | Экспертная | | |
| **ООО KESH TRANS MEGA STROY** | 10 | 1160000000 | 10 | Экспертная | | |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 10 | Shu turdagi ishlarni bajarganligi to'g'risida ma'lumot (F-5 F-2) taqdim qilish oxiri 3 yillik balans, moliyaviy natija pdf | 5 | Экспертная | | |

Критерий №7 Ishtirokchi korxonaning qurilish asbob uskunalari mashina va mexanizmlar ro'yxati haqida ma'lumot pdf

Тип: Текстовое значение

Описание: Ishtirokchi korxonaning qurilish asbob uskunalari mashina va mexanizmlar ro'yxati haqida ma'lumot pdf

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО LOCHIN-TIMSOLI** | 10 | 1154000000 | 10 | Экспертная | | |
| **ООО KESH TRANS MEGA STROY** | 10 | 1160000000 | 10 | Экспертная | | |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 10 | Ishtirokchi korxonaning qurilish asbob uskunalari mashina va mexanizmlar ro'yxati haqida ma'lumot pdf | 10 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО LOCHIN-TIMSOLI** | 1 164 000 000.00 | 1 154 000 000.00 UZS | 1 154 000 000.00 | 00.00 | 1 154 000 000.00 | 23.11.2022 21:39:22 | 28.96014 |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 1 164 000 000.00 | 1 114 000 000.00 UZS | 1 114 000 000.00 | 00.00 | 1 114 000 000.00 | 24.11.2022 16:50:26 | 30 |
| **ООО KESH TRANS MEGA STROY** | 1 164 000 000.00 | 1 160 000 000.00 UZS | 1 160 000 000.00 | 00.00 | 1 160 000 000.00 | 24.11.2022 15:56:49 | 28.81034 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **ООО LOCHIN-TIMSOLI** | 66.5 | 28.96014 | 95.46014 |
| **SHAROFAT MAJIDOVNA** | 49 | 30 | 79 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **OOO KESH TRANS MEGA STROY** | 56 | 28.81034 | 84.81034 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 193110 от 25.11.2022 года на приобретение Kitob tuman Panji MFY Panji shaharchasi ichki yo'llarini ishlarini 2.849 km qismini joriy tamirlash ishlari определила победителем:

ООО LOCHIN-TIMSOLI
300908442

и резервный исполнитель: ООО KESH TRANS MEGA STROY (306397070)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | XAMIDOV ABDISAMI SAMATOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | AMIROV BOBAMURAT YUSUBOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | XAKIMOV NASRIDDIN ZUVAYDULLAYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | SAMADOV ABDUMANNON SATTOROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MADIYEV KAMOLIDDIN ISMAILOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

«TASDIQLAYMAN»

**Kitob tumani hokimligi**

**Obodonlashtirish boshqarmasi**

**Komissiya raisi**

**_______________A.Xamidov**

# ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH O‘TKAZISH BO‘YICHA KITOB TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI KOMISSIYA YIG‘ILISH

# B A Y O N N O M A S I №30

Kitob tuman 2022 yil«29» 11

Ishtirok etdilar:

| | | |
|---|---|---|
| XAMIDOV ABDISAMI SAMATOVICH | Rahbar Rais | Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| AMIROV BOBAMURAT YUSUPOVICH | Bosh hisobchi A’zo | Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| MADIYEV KAMOLIDDIN ISMAILOVICH | Texnik nazoratchi A’zo | Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| XAKIMOV NASRIDDIN ZUBAYDULLAYEVICH | Bo‘lim Boshlig‘i A’zo | Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| SAMADOV ABDUMANNON SATTOROVICH | Bosh muhandis A’zo | Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |
| HAMROQULOV BEKZOD KARIM O‘G‘LI | G‘aznachi Kotib | Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi |

**KUN TARTIBI:**

Kitob tuman Panji MFY Panji shaxarchasi ichki yo'llarini 2.849 km qismini joriy ta'mirlash ishlari uchun eng yaxshi taklifni tanlash (tender) o‘tkazish bo‘yicha

(Xamidov Abdisami Samatovich, Amirov Bobamurat Yusupovich, Madiyev Kamoliddin Ismailovich, Xakimov Nasriddin Zubaydullayevich, Samadov Abdumannon Sattorovich, Hamroqulov Bekzod Karim O‘g‘li,)

Kitob tumani hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 17-noyabrdan O‘zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasini elektron portaliga Kitob tumanidagi Kitob tuman Panji MFY Panji shaxarchasi ichki yo'llarini 2.849 km qismini joriy ta'mirlash ishlari bo‘yicha

№ 193110 – lot raqami bilan e'lon joylashtirildi. Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 25-noyabrdagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portal orqali shakllangan " Kitob tuman Panji MFY Panji shaxarchasi ichki yo'llarini 2.849 km qismini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha" bayonnomasiga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan OOO Lochin-Timsoli g'olib deb topilganligini inobatga olib

**QAROR QILINDI:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yi 22 apreldagi ''Davlat xaridlari to'g'risida''gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muhokoma qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnoma bo'yicha hech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Obodonlashtirish boshqarmasi bosh hisobchisi B. Amirovga:
   Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 25-noyabrdagi elektron bayonnomasiga asosan g'olib OOO Lochin-Timsoli bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzilsin.

| | | |
|---|---|---|
| 1. Xamidov Abdisami | Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi raisi Rahbar | ____________ |
| 2. Amirov Bobamurat | Bosh hisobchi, A'zo | ____________ |
| 3. Xakimov Nasriddin | Bo'lim boshlig'i A'zo | ____________ |
| 4. Samadov Abdumannon | Bosh muhandis A'zo | ____________ |
| 5. Madiyev Kamoliddin | Texnek nazoratchi A'zo | ____________ |
| 6. Hamroqulov Bekzod | G'aznachi Kotib | ____________ |